O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

10. Obid o’g’li S. J., Nodir o'g'li X. A., Jasurjonovich B. J. SUPERVISED LEARNING REGRESSION ALGORITHM SIMPLE LINEAR REGRESSION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 69-76.
11. Mamatkulovich, B. B. (2022, May). Automatic Student Attendance System Using Face Recogniton. In Next Scientists Conferences (pp. 6-22).
12. Роль анализа текстовых связей в электронных документах в информационной безопасности Г Чорркулов, Н Норматов, А Мамараимов Информатика и инженерные технологии 1 (1), 67-71
13. Tanib olish modullarini dasturiy amalga oshirish А Мамараимов, Г Чорёркулов, Н Норматов Информатика и инженерные технологии 1 (2), 38-44

“RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” AMALDA: MUAMMO VA ISTIQBOLLAR

Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
sirojiddinsaitov@jbnuu.uz

Annotatsiya. Ushbu tezisda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari, uning hozirgi kundagi jadal rivojlanishi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yoritib berilgan. Ushbu tezisda muallif tomonidan raqamlashtirishning milliy iqtisodiyotdagi ko‘rinishi, shakli va yo‘nalishlari iqtisodiy tahlil asosida o‘rganib tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), milliy iqtisodiyot.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko‘tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1].

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan iqtisodiyotning turli sektorlarini raqamlashtirish borasida keng ko‘lamli chora tadbirlar, jumladan elektron hujjatlar almashinuvi, elektron hukumat xizmatlari, elektron tijoratni rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda AKT platformalarida faoliyat yurituvchi raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanmoqda, bu esa bunday platformalarning yanada yangi modellarini yaratishni taqozo etmoqda [2].

“Raqamli O‘zbekiston-2030” konsepsiyasiga ko‘ra raqamli iqtisodiyotga o‘tish YaIM ning kamida 30% ga o’sishini va korrupsiya darajasining sezilarli kamayishini ta’minlaydi. Shuningdek, ushbu konsepsiyaga ko‘ra, iqtisodiyotning real sektorida


raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagilar ustuvor yo‘nalish etib belgilangan:

- sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarni texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;
- korxona ta’minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta’minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish;
- zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish;
- innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish;
- savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish;
- boshqaruv ma’lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish;
- 2025-yilda korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ulushini 90 foizga yetkazish;
- sanoat korxonalarida joriy etilayotgan ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish (ERP, MES, SCADA va boshqalar), robotlashtirish, “Buyumlar interneti”, “sun’iy intellekt” kabi texnologiyalarning dasturiy mahsulot qismini 2027-yilga kelib, apparat qismini esa 2030-yilga kelib davlat-xususiy sheriklik asosida mahalliylashtirish;
- kommunal xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni boshqarish uchun smart texnologiyalarni joriy qilish, intellektual servislarni joriy qilish va kommunal xizmatlarni tartibga solish uchun “aqlli uy” tajribasini joriy etish;
- har qanday yo‘lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish;
- korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlarni Internet jahon axborot tarmog‘i orqali sotish bozorlarini kengaytirish;
- transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish;
- sug‘urta tizimini raqamlashtirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida raqamli sug‘urtani amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- logistika tizimini takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida raqamli logistika tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;
- iqtisodiyotning real sektorlarida robotlashtirilgan sanoatni rivojlantirish va amalga oshirish;
- yirik sanoat korxonalari uchun robototexnika va muhandislik ixtisosliklarini tashkil etish;
- ishlab chiqarish korxonalarida addiktiv (qavatma-qavat qurish va sintez qilish texnologiyasi, 3D o‘lchamda bosib chiqarish) texnologiyalarini keng joriy etish.

Jahon banki hisob-kitoblari binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko‘payishi yillik YaIM ko‘lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning mamlakat YaIMdagi ulushi har yili taxminan 20 foizga o‘sishi (rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 7 foiz atrofida) uning ahamiyati belgilaydigan ko‘rsatkich sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi salmoqli tarzda o‘sib kelmoqda hamda raqamli iqtisodiyot ulushi yildan yilga YaIM da o‘sib kelmoqda. Quyidagi tahlillarda mamlakatimizdagi ijobiy dinamik o‘zgarishlarni kuzatish mumkin.



1-rasm. 2023-yilda O‘zbekistonning YaIM o‘sish sur’ati

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turiptiki, mamlakatimizda YaIM o‘sib kelmoqda 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 6% ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

Biroq, mamlakatimizda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilayapti deb bo‘lmaydi, ya’ni raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning YaIMdagi ulushi u qadar yuqori emas, bunga sabab, aholining raqamli ko‘nikmalar darajasining pastligi, internet tezligining pastligi, internet narxining yuqoriligi va texnologik qurilmalarga egalik qilish nomutanosib taqsimlanganligidadir.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, yurtimizda raqamli iqtisodiyotning ekotizimini yaratish. Bunda,

- Mamlakat raqamli iqtisodiyot tizimining institutlari va infratuzilmasini yaratish;
- Elektron hukumat tizimi doirasida elektron davlat xizmatlaridan aholi va tadbirkorlik sub’yektlari uchun shaxsni masofadan tasdiqlashning qo‘shimcha shakl

va usullarini joriy etilishini nazarda tutuvchi raqamli identifikatsiyalashni rivojlantirish;

- Respublikaning barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi information jamiyat tashkil qilish uchun kerakli bo‘lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish;
- Raqamli texnologiyalar bozorini yanada rivojlantirish;
- Global miqyosda va global bozorlarga respublikani raqobatbardoshliligini oshirish;

Yuqoridagi belgilangan vazifalarni amalga oshirish orqali quyidagi natijalarga erishish rejalashtirilgan:

- elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish;
- elektron davlat xizmatlari ulushini oshirish;
- davlat, biznes va aholining ehtiyojlariga qarab, hisoblash quvvatini samarali taqsimlash va undan foydalanish;
- respublika bo‘ylab kommunal sohada elektron hisoblagichlar ulushini oshirish;
- an’anaviy qog‘oz yoki elektron hujjatga nisbatan elektron yozuvning ustunligi;
- dasturiy mahsulotlarning eksport hajmini kengaytirish;
- investitsiya muhitini yaxshilash, axborot texnologiyalari sohasida investitsiyalar samaradorligini oshirish;
- aholining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- aholining barcha qatlamlari uchun axborot texnologiyalari sohasida ta’lim olish bo‘yicha keng imkoniyatlarining mavjudligi;
- axborot texnologiyalari sohasidagi professional kadrlar zaxirasining, shu jumladan boshqaruv kadrlari zaxirasining mavjudligi;
- respublikaning barcha tumanlarida (shaharlarida) raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev//Tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo‘yicha videoselektoridagi nutqidan//22.09.2023
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 03.07.2018 yildagi PQ-3832-son. “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“. Manba: www.lex.uz
3. www.stat.uz
4. Saitov S.A., Xaydarov B.X., Raqamli iqtisodiyotda kichik biznesnning o‘rni // Journal.jbnuu.uz. -2022-yil 14-15-oktyabr, 2022-yil. 10.5281/zenodo.7329523
5. Saitov S.A., Xaydarov B.X., Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzallikari amaliy ahamiyati va xorijiy tajriba // https://t.me/ares_uz. -Volume 3 | Issue 5 | 2022,

6. Шарипова С. Математика в биологии //Conferencea. – 2022. – С. 196-199.
7. Sharipova S., Integrallar N. M. G. E. K. yordamida yechishga doir masalalar //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
8. Шарипова С. Ф., Олтмишев А. Современные педагогические технологии в обучении математике. – 2022.
9. Sharipov X., Sharipova S. Orbits are a family of vector fields and a hyperbolic paraboloid //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 50-57.

TARMOQ IQTISODIYOTI ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIMNI SHAKLLANTIRISH ASOSI SIFATIDA

Sirlibekov Habibullo, Suyarov Begzod
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Maqolada an'anaviy (sanoat) bozor iqtisodiyoti bilan taqqoslaganda zamonaviy “tarmoq iqtisodiyoti” ning nazariy asoslari tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: tarmoq iqtisodiyoti, iqtisodiy tizim, axborot iqtisodiyoti, sanoat iqtisodiyoti.

Axborot texnologiyalari, innovatsiyalarga asoslangan tarmoq iqtisodiyotining rivojlanishi va ishlab chiqarishni iste'molchi talablariga yo‘naltirishning ortib borayotgan ahamiyati O‘zbekistonda ham, butun dunyoda ham tadbirkorlik sub'ektlarining ish sharoitlarini sifat jihatidan o‘zgartirmoqda. Tarmoq iqtisodiyotining ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, tarmoq axborot texnologiyalarini takomillashtirish va tarqatishga ta’sirini o‘rganish iqtisodiyot nazariyasi uchun yangi va nihoyatda dolzarb vazifadir.

Maqola mavzusining dolzarbligi tarmoq konsepsiyasiga asoslangan ishlab chiqarish tuzilmalarining samarali ishlashiga yordam beradigan zamonaviy iqtisodiy tizim sifatida tarmoq iqtisodiyotini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarurati bilan bog‘liq.[1]

Iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida tarmoq iqtisodiyotini barpo etishning nazariy asoslari va amaliy yo‘llarini tahlil qilish, tarmoq tuzilmalarining milliy iqtisodiy tizimning jahon iqtisodiy muhitida raqobatbardoshligiga ta’sirini kuchaytirish tarmoqning hozirgi holati, degan xulosaga keladi. O‘zbekistonda iqtisodiyot boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, u korxonalarning mustaqil bo‘linmalarini ajratish va ular o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish bilan tavsiflanadi, rivojlangan mamlakatlarda esa tarmoq tuzilmalarining shakllanishi yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi aloqalar va adokratik tuzilmalarni yaratish yoki oraliq bosqichda bo‘ladi, uning ma’nosi mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va korxona tomonidan taklif qilinadigan xizmatlarni intellektuallashtirish yoki yakuniy bosqichdadir.[2]

20-asr oxiri va 21-asr boshlari jamiyat hayotini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Fan-texnika taraqqiyoti va globallashuv bozorga katta miqdordagi yangi